



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G'I

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani
ta'sis etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi negizida Raqamli texnologiyalar vazirligi tashkil etilganligi munosabati bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent axborot texnologiyalari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 15-martdagি PQ-2834-son qaroriga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarining iqtidorli talabalari uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani joriy etish maqsadida **buyuraman**:

1. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya va uni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rinnarda – Universitet) (B. Maxkamov):

a) quyidagilar:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya va uni tayinlash tartibi bilan barcha talabalarni tanishtirish hamda ularga tegishli sharoitlar yaratish;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasi to'g'risidagi yangiliklarni Universitet va uning filiallarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirish choralarini ko'rsin;

b) Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya kvotalar soni hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasiga nomzodlar to'g'risidagi taqdimnoma 2022/2023-o'quv yili yakuni bo'yicha **2023-yil 30-dekabrga qadar**, keyingi o'quv yildan boshlab **har yili 20-avgustga qadar** Universitet Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish uchun kiritilishini ta'minasin.

3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani ta'sis etish to'g'risida” 2017-yil 10-avgustdagи 404-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinosi R. Karimjonov zimmasiga yuklansin.

Vazir

Toshkent sh.
2023-y., 22-dekabr
322-son



Sh. Shermatov

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya
va uni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi
Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent axborot texnologiyalari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 15-martdagি PQ-2834-son qaroriga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallari talabalari uchun ta’sis etilgan.

2. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) va uning filiallarining bakalavriat bo‘yicha o‘qiyotgan 2-3-4-bosqich hamda magistratura bo‘yicha 2-bosqich talabalariga tayinlanadi.

2-bob. Stipendiyani belgilash tartibi

3. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya 2022/2023-o‘quv yili yakuni bo‘yicha **2023-yil 30-dekabrga qadar**, keyingi o‘quv yildan boshlab **har yili 20-avgustga qadar** Universitet rektorining taqdimnomasiga asosan Universitet Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

4. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya kvotasi Universitet va uning filiallari tomonidan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar kesimida talabalar soniga muvofiq taqsimlanadi. Bunda, har bir **500 nafar** talabaga **1 ta** kvota ajratiladi.

5. Universitet iqtidorli talabalari uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining **2,0 barobari** miqdorida belgilanadi.

6. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya Universitet va uning filiallari talabalarining oylik stipendiyasiga qo‘sib beriladi.

7. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya Universitet huzuridagi Ilmiy-innovatsion rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

3-bob. Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar

8. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga o‘quv jarayonida yuqori reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan (*o‘quv yili yakuniga (ikkala semestr natijalariga) ko‘ra, fanlardan o‘rtacha GPA balining 80 foizi va undan yuqori bo‘lishi, barcha fanlardan GPA bali 4,0 bo‘lishi zarur*), jamoat ishlarida faol, tashabbuskor va

intiluvchan, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan, respublika hamda xalqaro olimpiada (*shuningdek, sport musobaqalari*) g‘oliblari va sovrindorlari, AKTga oid ilmiy-tadqiqot, yirik dasturlar va izlanishlarda ishtirok etayotgan hamda AKTga oid ilmiy maqolalar yozgan, dasturiy va texnik ishlanmalar yaratgan va bu yo‘nalishda faol qatnashayotgan, shuningdek, xorijiy til sertifikati, xalqaro IT-sertifikati mavjud bo‘lgan hamda mahalliy va xorijiy hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtirok etib sovrindor bo‘lgan Universitet va uning filiallari talabalari da’vogar bo‘lishlari mumkin.

9. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga davogarlarni aniqlash maqsadida Universitet va uning filiallari tomonidan Ishchi guruh tuziladi.

10. Ishchi guruh:

Universitet va uning filiallari xodimlaridan iborat tarkibda tasdiqlanadi va jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yuritadi (Ishchi guruh tarkibiga zarur hollarda tizimdagi korxona va tashkilotlarning mutaxassislari kiritilishi mumkin);

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasiga talabgorlarining hujjatlarini xolisona, adolat tamoyillari asosida har tomonlama ko‘rib chiqilgan holda o‘rganish va saralash bilan shug‘ullanadi;

talabgorlarning baholash natijalari ushbu nizomning ilovasida keltirilgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga talabgorlar ko‘rsatkichlarini baholash mezonlariga muvofiq aniqlaydi hamda zarur hollarda ular bilan yuzma-yuz yoki videokonferensiya usullarida suhbat o‘tkazadi;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasini belgilash to‘g‘risidagi masalani muhokama qiladi, qaror qabul qiladi va qaror bayoni nusxasini Universitet rektorining taqdimnomasiga kiritish uchun asos sifatida taqdim qiladi.

4-bob. Stipendiyaga topshiriladigan hujjatlar

11. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga taqdim etilayotgan nomzodlar quyidagi hujjatlarni Universitet va uning filiallardagi Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limiga topshiradilar:

o‘rnatilgan tartibdagi o‘rtacha o‘zlashtirish GPA bali to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotnoma;

ilmiy va innovatsion ishlari nusxalari, shuningdek, uning bevosita ishlab chiqish va yaratishda ishtirok etgan ishlanmalari hamda dasturlari;

ilmiy konferensiya va seminarlarda ishtirok etgan ma’ruza tezislari, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari, shuningdek, o‘quv-metodik qo‘llanmalari nusxasi;

xorijiy tilni bilish darajasidagi sertifikati hamda xalqaro IT-sertifikatining nusxasi;

mahalliy va xalqaro darajadagi hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning, shuningdek, agar tanlovlarda sovrindor bo‘lgan bo‘lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, talabgor tahsil olayotgan fakultet dekani, kafedra mudiri, ilmiy rahbar tavsifnomasi;

talabgorning o‘ziga oid uning maqsadlari, shuningdek narsa va hodisalarga subyektiv fikrlari bayon etilgan erkin mavzuda esse;

ijtimoiy faolligi (ma’naviy-ma’rifiy hamda turli xil yoshlar tadbirlarida ishtiroki) bo‘yicha asoslovchi hujjatlarning nusxalari va boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlar.

Ishchi guruhi zarur hollarda hujjatlarning asl nusxalarini taqdim qilishni talab etishga haqli.

Barcha hujjatlar bir nusxada yig‘ma jildga joylanib taqdim etiladi.

Yig‘ma jild muqovasida o‘quv muassasasining nomi, nomzodning ismi va familiyasi, fakultet/bo‘lim nomi ko‘rsatiladi.

5-bob. Hujjatlarni ko‘rib chiqish tartibi

12. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga nomzodlarning hujjatlari **har yili 1-iyulga qadar** Universitet va uning filiallardagi Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limiga topshiradilar. Hujjatlar Ishchi guruh tomonidan **har yili 1-avgustga qadar** ko‘rib chiqiladi va baholanadi.

13. 2022-2023 o‘quv yili uchun Universitet Kengash qarori hamda keyingi o‘quv yilidan boshlab Ishchi guruh qarori Universitet rektorining taqdimnomasini tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Universitet rektori Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga nomzodlar to‘g‘risidagi taqdimnomani 2022/2023-o‘quv yili yakuni bo‘yicha **2023-yil 30-dekabrga qadar**, keyingi o‘quv yilidan boshlab **har yili 20-avgustga qadar** Universitet Kuzatuv kengashida ko‘rib chiqish uchun kiritishi lozim.

14. Universitet Kuzatuv kengashi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga nomzodlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Universitet Kuzatuv kengashi stipendiya tayinlash haqidagi taqdimnomani yiliga bir marta ko‘rib chiqadi. **Ko‘rib chiqish muddati – 10-sentabrga qadar.**

Universitet Kuzatuv kengashining Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga tavsiya etilgan nomzodlarni tayinlash to‘g‘risidagi qarori tasdiqlanadi va bir o‘quv yili uchun tayinlanadi.

Bir o‘quv yili mazkur tartibga ko‘ra, bir kalendar yilining sentabr oyidan boshlab, keyingi kalendar yilining iyun oyiga qadar **10 oy** deb belgilanadi.

15. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya tayinlangan talaba Universitet Kengashining yig‘ilishida tantanali ravishda e’lon qilinadi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

16. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga sazovor bo‘lgan talaba kundalik darslarni o‘zlashtirishda qoloqlikka yo‘l qo‘yganda, o‘quv intizomi va odob-axloqini buzgan holatlarda Universitet Kengashining murojaatiga ko‘ra, Universitet Kuzatuv kengashi tomonidan stipendiya berilishi to‘xtatiladi.

17. Talabalarning Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani tayinlash bo‘yicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiya
va uni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
Illova

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyaga talabgorlar ko‘rsatkichlarini
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1)	Taqdim etilgan hujjatlar to‘liqligi va rasmiylashtirish sifati	5 ball
2)	Nomzodning semestrlarda fanlardan olgan baholarining o‘rtacha miqdoriga ko‘ra <i>agar nomzodning o‘rtacha GPA bali – 4,01-4,25 bo‘lsa</i> <i>agar nomzodning o‘rtacha GPA bali – 4,26-4,49 bo‘lsa</i> <i>agar nomzodning o‘rtacha GPA bali – 4,50 va undan yuqori bo‘lsa</i>	20 ball <i>10 ball</i> <i>15 ball</i> <i>20 ball</i>
3)	Ilmiy-ijodiy va innovatsion ishlari <i>talabgorlarning ilmiy jurnallardagi maqolalari</i> <i>- beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball;</i> <i>- beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball.</i> <i>mahalliy va xorijiy konferensiyalardagi tezislari</i> <i>- beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball;</i> <i>- beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball.</i> <i>o‘quv-metodik qo‘llanmalardagi ishtiroki</i> <i>- beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball;</i> <i>- beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball.</i> <i>yaratilgan sayt, dastur, ilovalardagi ishtiroki</i> <i>- beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball;</i> <i>- beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball.</i> <i>mayjud bo‘lmasa – 0 ball.</i>	20 балл <i>5 ball</i> <i>5 ball</i> <i>5 ball</i> <i>5 ball</i> <i>5 ball</i> <i>0 ball</i>
4)	Xorijiy tillarni bilish darajasi* <i>agar talabgor B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor C1 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lmasa</i>	20 ball <i>10 ball</i> <i>15 ball</i> <i>20 ball</i> <i>0 ball</i>
5)	Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi** <i>agar talabgor boshlang‘ich darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor o‘rta darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor professional darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa</i> <i>agar talabgor xalqaro IT-sertifikatiga ega bo‘lmasa</i>	20 ball <i>10 ball</i> <i>15 ball</i> <i>20 ball</i> <i>0 ball</i>
6)	Sertifikat, diplomlar va faxriy yorliqlari <i>- beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball;</i> <i>- beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball.</i> <i>- mayjud bo‘lmasa – 0 ball.</i>	5 ball
7)	Umumiy faoliyati <i>talabgor tomonidan yozilgan esse</i> <i>tavsiyonamalar hamda baholash jadvalida ko‘zda tutilmagan boshqa yutuqlari uchun</i>	10 ball <i>5 ball</i> <i>5 ball</i>
Jami		100 bal

Baholash mezonlariga Raqamlı texnologiyalar vazirligi tomonidan Universitet va uning filiallari takliflariga asosan o‘zgartirish va qo‘srimchalalar kiritilishi mumkin.

* Mazkur mezon tegishli normativ huquqiy hujjat bilan tasdiqlangan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatiga muvofiq baholanadi.

** Mazkur mezon Raqamlı texnologiyalar vazirlirigi tasdiqlangan va it-istedod.uz portalida e’lon qilingan xalqaro IT-sertifikatlar ro‘yxatiga muvofiq baholanadi.